



XORIJIY TAJRIBALAR ASOSIDA MOLIVAVIY SAVODXONLIK OSHIRISHNING DOLZARB MASALALARI

Muradova Dildora Abdusalimovna

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

ORCID: 0000-0002-6508-3324

dildoramuradova1985@gmail.com

Sindarov Fazliddin Qaxramonovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi

“O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari

va muammolari” ilmiy tadqiqot markazi

ORCID: 0009-0003-7254-4584

fazliddinst2020@gmail.com

Annotatsiya. Maqola moliyaviy savodxonlikning zamonaviy jamiyatda ahamiyatini va O‘zbekistonda uni rivojlantirish zarurligini tahlil qiladi. Moliyaviy bilimlarning shaxsiy va iqtisodiy farovonlikka ta’siri, xorijiy tajribalar, ayniqsa Daniya, Shvetsiya, Kanada va Yaponiya mamlakatlari misolida o‘rganiladi. Maktab ta’limiga moliyaviy savodxonlikni integratsiya qilish va innovatsion usullarni qo‘llash bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: moliyaviy savodxonlik, iqtisodiy farovonlik, innovatsion usullar, maktab dasturlari, raqamli texnologiyalar, investitsiya, moliyaviy ta’lim.

АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ ПОВЫШЕНИЯ ФИНАНСОВОЙ ГРАМОТНОСТИ НА ОСНОВЕ МЕЖДУНАРОДНОГО ОПЫТА

Мурадова Дилдора Абдусалимовна

Ташкентский государственный экономический университет

Синдаров Фазлиддин Кахарамонович

Научно-исследовательский центр «Научные основы и

Проблемы развития экономики Узбекистана» при

Ташкентском государственном экономическом университете

Аннотация. Статья анализирует значение финансовой грамотности в современном обществе и необходимость её развития в Узбекистане. Рассматривается влияние финансовых знаний на личное и экономическое благосостояние, изучается зарубежный опыт, в частности, примеры Дании, Швеции, Канады и Японии. Разработаны практические рекомендации по интеграции финансовой грамотности в школьное образование и применению инновационных методов.

Ключевые слова: финансовая грамотность, экономическое благосостояние, инновационные методы, школьные программы, цифровые технологии, инвестиции, финансовое образование.

CURRENT ISSUES IN IMPROVING FINANCIAL LITERACY BASED ON INTERNATIONAL EXPERIENCES

Muradova Dildora Abdusalimovna

Tashkent State University of Economics

Sindarov Fazliddin Kaxramonovich

Scientific research center "Scientific foundations and problems of the development of the economy of Uzbekistan" under Tashkent State University of Economics

Abstract. *The article analyzes the importance of financial literacy in modern society and the need for its development in Uzbekistan. It examines the impact of financial knowledge on personal and economic well-being and studies international experiences, particularly examples from Denmark, Sweden, Canada, and Japan. Practical recommendations are developed for integrating financial literacy into school education and applying innovative methods.*

Keywords: *financial literacy, innovative methods, school curricula, digital technologies, investment, financial education.*

Kirish

Moliyaviy savodxonlik zamonaviy jamiyat uchun zarur bo'lgan asosiy ko'nikmalardan biri bo'lib, aholi farovonligini oshirish va iqtisodiyotning barqaror rivojlanishida muhim o'rin tutadi. O'zbekistonda iqtisodiy islohotlar jarayonida aholi va tadbirkorlarning moliyaviy bilimlari va ko'nikmalari sezilarli ahamiyat kasb etadi. Chunki moliyaviy savodxonlik nafaqat shaxsiy daromad va mablag'larni samarali boshqarishga yordam beradi, balki investitsiyalarni jalb qilish, moliyaviy risklarni kamaytirish va mamlakat iqtisodiyotining barqarorligini ta'minlashda ham muhim omil hisoblanadi.

Ammo O'zbekistonda moliyaviy savodxonlik darajasi hanzur past darajada bo'lib, bu bir qator muammolarni keltirib chiqarmoqda. Aholining ko'pchiligi qimmatli qog'ozlar bozori, investitsiya imkoniyatlari, moliyaviy rejalashtirish va risklarni boshqarish kabi masalalarda yetarli bilimga ega emas. Moliyaviy savodxonlikning pastligi natijasida odamlar bank kreditlari va moliyaviy xizmatlardan noto'g'ri foydalanadi, bu esa iqtisodiy noaniqlikni kuchaytiradi.

Shu sababli, O'zbekistonda moliyaviy savodxonlikni oshirish dolzarb vazifalardan biri bo'lib, xorijiy tajribalardan foydalanish va mahalliy sharoitlarga mos strategiyalarni ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega.

Adabiyotlar sharhi.

Moliyaviy savodxonlik hozirgi kunda global iqtisodiy barqarorlik va farovonlikka erishishda muhim omil bo'lib qolmoqda. Bu bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar va adabiyotlar tahlili moliyaviy savodxonlikni oshirish uchun samarali strategiyalarni ishlab chiqish imkonini beradi.

Moliyaviy savodxonlik – bu shaxsning moliyaviy qarorlar qabul qilish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va qobiliyatlarni egallaganlik darajasi. Lusardi va Mitchell (2014) tadqiqotlari moliyaviy savodxonlikning iqtisodiy ahamiyatini o'rganib, uning shaxsiy farovonlik va iqtisodiy barqarorlikka ta'sirini baholab ko'rsatdi. Atkinson va Messy (2012) tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlar esa OECD/INFE (International Network on Financial Education) dasturi doirasida moliyaviy savodxonlikni baholash natijalarini taqdim etdi va moliyaviy bilimlarning aholi farovonligiga ta'sirini tahlil qilgan.

Moliyaviy savodxonlikni o'quv dasturlariga integratsiya qilish zamonaviy ta'limning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. OECD (2013) moliyaviy savodxonlik ta'limini maktab dasturlariga kiritish usullari haqida ma'lumot beradi va bu jarayonning turli mamlakatlarda qanday amalga oshirilishini tahlil qilgan. Mandell (2008) o'z tadqiqotlarida AQSh maktablarida

moliyaviy savodxonlik darajasini oshirish uchun maxsus kurslar va treninglar tashkil etishni tavsiya etgan.

Kanada va Yaponiya davlatlarining moliyaviy savodxonlik ta'limidagi tajribalari bu borada yaxshi natijalar ko'rsatgan. OECD (2017) va APEC (2019) hisobotlari ushbu mamlakatlarda moliyaviy savodxonlik darajasini oshirish uchun qabul qilingan strategiyalar va dasturlarni batafsil o'rganilgan. Kanadada moliyaviy savodxonlik dasturlari maktabgacha ta'limdan boshlab, bosqichma-bosqich amalga oshirilsa, Yaponiyada qisqa muddat ichida moliyaviy ta'lim berish samaradorligi oshirilgan.

O'zbekistonda moliyaviy savodxonlikning hozirgi holati, mavjud muammolar va imkoniyatlar tahlili davlat va xususiy sektor hamkorligini kuchaytirish zarurligini ko'rsatadi. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya Vazirligi va Xalq Ta'limi Vazirligi tomonidan taqdim etilgan hisobotlar aholining moliyaviy bilim darajasini oshirish uchun amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar haqida ma'lumot beradi. World Bank (2014) tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlar esa O'zbekistonda moliyaviy ko'nikmalarni oshirish uchun taklif qilingan strategiyalarni batafsil bayon etgan

Moliyaviy savodxonlikni oshirish uchun samarali strategiyalar va yondashuvlar tahlili davlat va xususiy sektor hamkorligini kuchaytirishni, zamonaviy texnologiyalardan foydalanishni va interaktiv usullarni tatbiq etishni o'z ichiga oladi. Lusardi va boshqalar (2017) tadqiqotlarida moliyaviy bilimlarning ijtimoiy va iqtisodiy tengsizlikka qarshi kurashdagi o'rni ko'rsatilgan bo'lib, ushbu bilimlarni oshirish orqali iqtisodiy tengsizlikni kamaytirish mumkinligi ta'kidlangan.


Moliyaviy savodxonlikka oid adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, moliyaviy bilimlar va ko'nikmalarni oshirish shaxsiy va ijtimoiy farovonlikka sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganish va ularni O'zbekiston sharoitiga moslashtirish orqali maktab ta'lim tizimida moliyaviy savodxonlikni oshirish bo'yicha samarali chora-tadbirlarni amalga oshirish mumkin. Shu bilan birga, davlat va xususiy sektor hamkorligini kuchaytirish, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish va interaktiv usullarni tatbiq etish muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu tadqiqotda moliyaviy savodxonlikni oshirish bo'yicha xorijiy tajribalarni o'rganish va ularni O'zbekiston sharoitiga moslashtirishga alohida e'tibor qaratilgan. Tadqiqotda sifat va miqdoriy tahlil usullari qo'llanilgan. Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlardagi moliyaviy ta'lim dasturlari, raqamli texnologiyalar va innovatsion yondashuvlar tahlil qilingan. Ma'lumotlar xalqaro tashkilotlar hisobotlari, ilmiy maqolalar, statistik manbalar va rasmiy hujjatlardan olingan. Shuningdek, O'zbekistondagi mavjud moliyaviy savodxonlik holati milliy statistika va ijtimoiy tadqiqotlar asosida baholangan. Tadqiqot natijalariga asoslangan holda, amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Ahoning moliyaviy savodxonlik darajasini statistik ma'lumotlarni tahlil qilish asosida aniqlashni imkoniyati mavjus emas. Buning uchun aholining ma'lum qatlamidan so'rovnomalar o'tkazish yo'li bilan moliyaviy savodxonlik darajasini aniqlash va shunga mos ravishda ahoning moliyaviy savodliklik darajasini oshirish uchun dasturlar ishlab chiqish mumkin. Ko'rga ko'ringan xalqaro kompaniyalar dunyo bo'ylab, ko'plab davlatlar aholisining moliyaviy savodlik darajasini aniqlash bo'yicha ko'plab marotaba so'rovnomalar o'tkazgan. Jumladan, Global moliyaviy savodxonlik markasi (GFLEC) 2014-yilda 140 ta mamlakat bo'ylab moliyaviy savodxonlikni aniqlash bo'yicha keng qabrovli so'rovnoma o'tganzgan va bunda 170 mingdan ziyon respondent qatnashgan. Aholidan foiz oddiy va murakkab foiz stavkalarini hisoblay olishi, inflyatsiya nima ekanligi, moliyaviy risklarni qanday diversifikatsiya qilish mumkin ekanligi so'rovnoma davomida asosiy savollar sifatida qaralgan.



1-rasm. GFLEC tomonidan so'rovnomaga o'tkazilgan davlatlar geografiyasi
(Lusardi, Klapper, 2014)

Ushbu tadqiqot natijasiga qaraganda eng yaxshi rivojlangan 50 mamlakat aholisining moliyaviy savodxonlik darajasi boshqa mamlakatlar aholisining savodxonlik darajasida sezilarli darajada yuqori bo'lgan. Erkak bu bo'yicha ayollardan ustun ekanligi ma'lum bo'lgan. Rivojlangan davlatlardan eng boy 60 % aholining 31%, eng kambag'al 40 % aholining 23% moliyaviy jihatdan savodxonlik darajasi yaxshi ekanligi aniqlangan.

Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (Organisation for Economic Co-operation and Development, OECD) 2023 -yilda "Kattalar moliyaviy savodxonligi xalqaro tadqiqoti"ni¹⁰² e'lon qildi. Unda o'tkazilgan tadqiqot davomida aholining moliyaviy savodxonlik darajasini aniqlash doirasida aholining moliyaviy bilimlari, moliyaviy xatti-harakatlari, raqamli moliyaviy savodxonligi, shuningdek, aholining moliyaviy farovonligi darajasi va moliyaviy muammo va firibgarilik qurbonli bo'lishning moliyaviy savodxonlik darajasiga bog'liqligi o'rganilgan. Hisobotda, inflyatsiya kabi oddiy tushunchalarni aksariyat respondentlar bilishi (84%) qayt etilgan, ammo murakkab foizlarni hisoblashni faqat 42% tushuninishi aniqlangan. Bundan tashqari, raqamli moliya sohasida ham aksariyat aholining moliyaviy savodxonligi ancha pastli aniqlangan.

Ko'plab tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, moliya savodxonligi darajasi boy davlatlarda ham past bo'lib, ko'plab aholining oddiy moliyaviy tushunchalarni yetarlicha emas. Shuning uchun ko'plab davlatlar aholisining moliyaviy farovonlikka erishishida moliyaviy savodxonlik darajasini oshirish uchun mumtazan ravishda ko'plab dasturlar yordamida amaliy natijalarga erishishga harakat qilishmoqda.

O'zbekistonda ham aholini moliyaviy savodxonlik darajasini oshirish juda dolzarb masala hisoblanadi. Lekin bu borada qilanayotgan ishlarni hajmini katta deb bo'lmaydi. Chunki, 38 mlnlik aholining katta auditoriyani qamrab oladigan moliyaviy savodxonlik dasturlari mavjud emas. Albatta, bunday katta auditoriyani qamrab oladigan dasturlarni amalga oshirish ham juda qimmat va uzoq vaqt talab qiladigan jarayon hisoblanadi. Lekin xorijiy mamlakatlar tajribasi asosida bunga qisman erishish mumkin.

Moliyaviy savodxonlik deganda bu shaxsning moliyaviy qarorlar qabul qilish, moliyaviy resurslarni boshqarish va iqtisodiy farovonlikni ta'minlash uchun zarur bo'lgan bilim, tushunchalar, ko'nikmalar va xatti-harakatlar majmuasidir. Moliyaviy savodxonlik bu shaxsning moliyaviy bozorlar, mahsulotlar va xizmatlar haqida to'g'ri qarorlar qabul qilishga yo'naltirilgan fundamental bilim va qobiliyatlarini shakllantiruvchi konseptual ko'nikmalar

102

https://www.oecd.org/en/publications/oecd-infe-2023-international-survey-of-adult-financial-literacy_56003a32-en/support-materials.html

to'plami bo'lib, moliyaviy bilim, moliyaviy xatti-harakatlar va moliyaviy munosabatlar yig'indisidan iborat. Moliyaviy savodxonlik shaxsga o'zining moliyaviy imkoniyatlarini baholash, turli moliyaviy mahsulotlar va xizmatlarning afzalliklari hamda xavflarini solishtirish orqali oqilona qarorlar qabul qilish imkonini beradi. Bu bilim va ko'nikmalar shaxsning iqtisodiy barqarorligini ta'minlash, moliyaviy qiyinchiliklarni yengib o'tish va moliyaviy firibgarliklardan himoyalashida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Standard & Poor's Ratings Services Global Survey tomonidan o'tkazilgan so'rov natijalariga ko'ra, Daniya, Norvegiya va Shvetsiya moliyaviy savodxonlik darajasi yuqori bo'lgan mamlakatlar ro'yxatida eng yuqori o'rinlarni egallagan.

Bugungi kunda Standard & Poor's Ratings Services Global Survey tomonidan o'tkazilgan tadqiqotga ko'ra, Daniya, Shvetsiya, Norvegiya, Kanada, Buyuk Britaniya, Niderlandiya kabi davlatlar aholisi moliyaviy savodxonligi yuqori davlatlar sifatida e'tirof etiladi.

Daniya yuqori turmush darajasi va moliyaviy ta'limga katta e'tibor qaratadi, Daniya aholisining 71% moliyaviy savodxonlik hisoblanib Yevropa davlatlari orasida Norvegiya va Shvetsiya bilan birinchi o'rinni egallaydi. Statistik ma'lumotlarga qaraganda Daniya uy-xo'jaliklarining qarzi yuqori, ammo ularning aktivlari hajmi katta. Daniya aholisining ishchi qatlami ish haqqining 10-15% pensiya uchun jamg'arishadi.

Daniyada moliyaviy savodxonlik darslari maktab ta'lim dasturlariga kiritilgan bo'lib, 13-15 yoshdan o'quvchilarni qabrab oladi. Maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarga pulning ahamiyati, jamg'arish va sarflash, bank va iste'molchilar huquqlari kabi asosiy moliyaviy tushunchalar o'rgatiladi. Maktablarda matematika va iqtisodiyot fanlari doirasida moliyaviy savodxonlik elementlari kiritilgan bo'lib, o'quvchilarga budjet tuzish, jamg'arma va investitsiya kabi mavzular o'rgatiladi. Har yili 700 dan ortiq maktablarda 20 000 dan ortiq o'quvchilar Daniya pul haftaligida (Danish Money Week) ishtirok etadi. Ushbu dastur asosida moliyaviy soha mutaxassislari moliyaviy bilimlarning ahamiyatini maktab o'quvchilariga tushintirish uchun ko'plab maktablarga turli mavzularda seminarlar tashkil qilishadi.

Finance Danmark mamlakatning moliya sektori assotsiatsiyasi jamiyatning barcha qatlamlari, ayniqsa, bolalar va yoshlarda pul va moliyaviy bilimlar haqida dastlabki tushunchalarni shakllantirish uchun faol ish olib boradi. Assotsiatsiyasi yuqori moliyaviy savodxonlik odamlarga turli xil moliyaviy mahsulotlar bilan bog'liq risk va imkoniyatlarni tushunish va e'tirof etish imkonini beradi va bu moliyaviy farovonlikka olib keladi deb hisoblaydi.

Daniya oliy ta'lim muassasalarida moliyaviy ta'lim juda chuqur o'qitiladi. Masalan, Kopengagen biznes maktabi moliya va investitsiyalar bo'yicha iqtisod va biznes boshqaruvi yo'nalishlari bo'yicha magistratura ta'lim dasturlari mavjud. Ushbu dastur moliyaviy sohaga tegishli miqdoriy va tahliliy ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan.

Raqamli texnologiyalar rivojlanishi bilan Daniyada moliyaviy savodxonlikni oshirishga qaratilgan onlayn platformalar va mobil ilovalar yaratilmoqda. Bundan resurslar orqali foydalanuvchilar moliyaviy rejalashtirish, budjet boshqaruvi va investitsiya bo'yicha interaktiv darslar va maslahatlar olishi mumkin.

Daniya hukumati va nodavlat tashkilotlari hamkorlikda aholining moliyaviy savodxonligini oshirishga qaratilgan dasturlar va loyihalarni amalga oshiradi. Bular doirasida ommaviy axborot vositalarida moliyaviy masalalar bo'yicha ma'lumotlar beriladi, maxsus tadbirlar va ko'rgazmalar tashkil etiladi. Davlat dasturlari asosida ommaviy axborot vositalarida fuqarolarga kredit olish, qarzlarni qaytarish, soliqlarni to'lash va pensiya jamg'armalarini shakllantirish kabi moliyaviy mavzular bo'yicha ma'lumot berishadi.

Shuningdek, Daniyada aholini ommaviy moliyaviy savodxonligini oshirish uchun nodavlat tashkilotlar ham faol qatnashadi. Nodavlat tashkilotlar yoshlar va kattalar uchun moliyaviy treninglar va seminarlar tashkil qiladi va bu treninglarda qatnashchilar shaxsiy budjet boshqaruvi va moliyaviy rejalashtirish bo'yicha amaliy bilimlarga ega bo'lishadi Banklar, sug'urta kompaniyalari va boshqa moliyaviy institutlar tomonidan aholiga moliyaviy

xizmatlarni tushuntirishga qaratilgan dasturlar doimiy ravishda amalga oshirilib kelinadi. Bu xizmatlar orasida moliyaviy maslahatlar va bepul treninglar bo'ladi.

Shuningdek, nodavlat tashkilotlar va startaplar moliyaviy o'yinlar, interaktiv trening ilovalari va vositalarni ishlab chiqib, aholi o'rtasida moliyaviy savodxonlikni targ'ib qilashadi.

Shvetsiya moliyaviy savodxonligi yuqori davlat hisoblanadi. Shvetsiya ta'lim tizimida ko'plab fanlarda moliyaviy ta'limga oid mavzular mavjud. Moliyaviy ta'limni rivojlantirish bo'yicha hukumat ko'plab dasturlarni mumtazam amalga oshirib keladi. Shuningdek, mamlakatdagi shaffof bank tizimi, yuqori raqamli savodxonlik va moliya institutlariga ishonch fuqarolarning moliyaviy bilim va imkoniyatlarini yanada oshirmoqda.

Maktabgacha ta'lim bosqichida bolalarning moliyaviy tushunchalarni o'rganishi uchun maxsus dasturlar joriy etilgan. Masalan, Shvetsiyada kam ta'minlangan oilalar farzandlari uchun bog'cha bepul bo'lib, bu bolalarning moliyaviy bilimlarini oshirishga yordam beradi.

Umumiy o'rta ta'limda o'quvchilarga moliyaviy savodxonlik bo'yicha maxsus kurslar va treninglar o'tkaziladi. Bu kurslar turli yoshdagi o'quvchilar uchun moslashtirilgan bo'lib, ularning moliyaviy bilim va ko'nikmalarini oshirishga qaratilgan.

Oliy ta'lim bosqichida esa universitetlar moliyaviy ta'limga alohida e'tibor berib, talabalarga moliyaviy yordam dasturlari, stipendiyalar va grantlar taqdim etadi. Shvetsiya hukumati har yili taxminan 12 million dollar mablag'ni xorijiy talabalar uchun stipendiyalarga ajratadi.

Bundan tashqari, Shvetsiyada aholining moliyaviy savodxonligini oshirish uchun davlat va xususiy sektor hamkorligida turli loyihalar amalga oshiriladi. Bu jarayonda zamonaviy texnologiyalar va interaktiv usullar qo'llanilib, aholining moliyaviy bilimlarini oshirishga qaratilgan dasturlar ishlab chiqiladi.

Kanada aholisining moliyaviy savodxonlik darajasi bo'yicha yetakchi o'rinlarda turishining asosiy sabablaridan biri maktablarda moliyaviy ta'lim umumiy ta'lim jarayoning bir qismi sifatida maktab ta'limining barcha bosqichlarida uzluksiz o'qitilishidir.

Kanadaning moliyaviy iste'molchilar agentligi (Financial Consumer Agency of Canada, FCAC) mamlakatdagi moliyaviy mahsulotlar va xizmatlar iste'molchilarining huquq va manfaatlarini himoya qilish uchun javobgar bo'lgan asosiy reguliyator tashkilot bo'lib, aholining moliyaviy savodxonligini oshirish tashkilotning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Agentlik nafaqat katta yoshdagi aholini balki kichik yoshdagi aholini ham moliyaviy ta'limini oshirishga katta e'tibor beradi. Bunda, agentlik federal hududlarida ta'limga ma'sul bo'lgan tashkilotlar bilan birgalikda moliyaviy ta'limni maktab dasturlariga integratsiya qilishni ta'minlaydi. Bu moliyaviy ta'limning erta yoshdan boshlab rasmiy ta'lim jarayonining bir qismi bo'lishini ta'minlaydi. Shuningdek, ta'lim jarayonining samaradorligini ta'minlash uchun o'qituvchilarni bilim darajasi oshirib boriladi. Ularga moliyaviy savodxonlikni samarali o'rgatish uchun zarur treninglar va resurslar bilan ta'minlash muntazam ravishda ta'limlab turiladi. Bundan tashqari, maktab yoshidagi bolalar uchun maxsus mo'ljallangan dasturlar va amaliy seminar-treninglar tashkil etiladi. Darsda va darslardan bo'sh vaqtlari o'quvchilar foydalanishi mumkin bo'lgan ko'plab interaktiv vositalar agentlik tomonidan yaratilgan bo'lib, ulardan mobil ilovalar va web saytlar orqali online foydalanish imkoniyati ham yaratilgan. Agentlik bu ilovalar va web saytlardagi o'quv kontentlarini bazasini doimo kengaytirib yangilab boradi. Bu mamlakat bo'ylab yoshlarning moliyaviy savodxonlik ta'limini olishda teng va keng imkoniyatlar berilganligining yaqqol isbotidir.


Kanada Innovatsiyalar, Fan va Iqtisodiy Rivojlanish vazirligi (Innovation, Science and Economic Development Canada) mamlakatda ta'limga ma'sul yagona vazirlik hisoblanadi. Maktab o'quvchilariga moliyaviy ta'limni mamlakat bo'ylab koordinatsiyasini vazirlik zimmasida. Vazirlikning asosiy maqsadi moliyaviy savodxonlik mavzularini turli ta'lim darajalaridagi maktab o'quv dasturlariga kiritish hisoblanib, moliyaviy ta'lim mavzularni matematika, ijtimoiy fanlar va hatto tibbiyot kabi fanlarga integratsiyalashgan holda, ISED maktab o'quvchilariga erta yoshdan boshlab moliyaviy tushunchalar haqida yaxlit tushuncha

berish hisoblanadi. Kanada ta'lim tizimida pedagoglarni malakasini oshirish, interaktiv ta'lim resurslari bilan ta'minlash ta'lim jarayonining muhim tarkibiy qismi bo'lib, bular o'quvchilarni moliyaviy savodxonlik ta'limida amaliy ko'nikmalarni oshirish, tanqidiy fikrlashni rag'batlantirish va bir umrlik moliyaviy ma'suliyatni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi va bu vazifalarni asosiy qismi vazirlik ttashabusi bilan amalga oshiriladi.

Kanadada moliyaviy savodxonlik ta'limi bo'yicha interfaol o'quv vositalari maktab yoshidagi bolalarni qiziqarli va amaliy tarzda jalb etishga qaratilgan bo'lib, ularga murakkab moliyaviy tushunchalarni osonroq tushunishga yordam beradi. O'qituvchilar dars jarayonida berilayotgan ta'limning ta'sirchanligini oshirish uchun turli xil interaktiv ta'lim vositalaridan: online va offline o'yinlar, viktoriyalar, mobil ilovalar, turli web-saytlar, videolar, so'rovnomalar, moliyaviy masalalar to'plami va boshqa instrumentlardan fan va mavzu doirasida faol foydalanadi.

Kanadada maktab o'quvchilarning moliyaviy savodxonligini oshirish uchun federal hukumatdagi masul vazirlik va tashkilotlar, shuningdek, moliyaviy institutlar tomonidan ko'plab online plaformalar (web-saytlar) va mobil ilovalar yaratilgan bo'lib barcha foydalanuvchilar uchun juda qulay shaklda ishlab chiqilgan. Quyida mobil o'yinlarni eng ommobiq hisoblanadi;

1. **Moliyaviy fudbol (Financial Football)** (iOS, Android va Windows) - Visa kompaniyasi tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, butun Shimoliy Amerika mamlakatlarida yoshlar tomonidan ko'p o'ynaladigan o'yin hisoblanadi. Mobil o'yin ishtikchilarni yoshiga qarab 3 guruhdan birini tanlashi mumkin. 1-guruh 11-14 yosh, 2-guruh, 14-18 yosh va 3-guruh 18 yoshdan kattalar uchun mo'ljallangan. Siz yoshingizni tashlaganingizdan so'ng 5, 10, 20 yoki 30 daqiqa belgilangan vaqtlardan biri tashlaysiz. Keyingi bosqichda siz o'zingiz sevgan fudbol jamoasini va unga raqib jamoani tashlaysiz. Jamoalarni tanlaganingizdan so'ng o'yin boshlanadi. O'yinda savollar budjet tuzish, moliyaviy institutlar, jamg'arma va qarz guruhleri (bu yosh guruhi bo'yicha farq qilishi mumkin) bo'yicha tuzulgan bo'lib savollarni qiyinlik darajasiga qarab oson, o'rtacha va qiyin savollar guruhiga ajratilgan. Savollarga to'g'ri javob bersangiz yashil rang, noto'g'ri javob bersangiz qizil rang bilan ko'rsatiladi. Har bir to'g'ri javob uchun siz tanlagan jamoangiz maydonda siz tanlagan taktika bo'yicha yaxshiroq harakatlanadi va g'alaba qozonadi va aksincha.



2-rasm. Moliyaviy fudbol mobil o'yini boshqichlari

Manba: muallif tomonidan mobil ilova interfeysidan foydalanib ishlab chiqildi.

Moliyaviy futbol o'yini budjet tuzish, qarzlarni boshqarish, moliyaviy qarorlar qabul qilish, jamg'arma kabi mavzularni qabrab oladi. Bu o'yinni bir yoki ikki kishi bo'lib ham o'ynash mumkin.

2. Cash Puzzler (Pul topishmoqlar o'yini) – 3 yoshdan 6 yoshgacha bo'lgan bolalarga mo'ljallangan o'yin bo'lib, bolalarga mamlakat kupyura tanib olishga va ularning qiymatini tushinishga yordam beradi. O'yinda kupyuralar mazayka shaklida berilgan bo'lib, bolalar ularni yaxlid pul shakliga kelguncha yig'ishadi.

3. Money Magic (Pul sehri) – interaktiv moliyaviy savodxonlik o'yini bo'lib, maktab o'quvchilariga pulni boshqarish, investitsiya kiritish, shaxshiy va oila budjetini tuzish kabi moliyaviy masalalarni qiziqarli va amaliy tarzda o'rgatishga mo'ljallangan. O'yindagi ko'plab masasalar real hayotdan olingan bo'lib, ishtirokchilarga o'ziga xos qiyinchilik ham tug'dirishi mumkin, lekin tog'ri qarorlarni qabul qilinishi qo'shimcha imkoniyatlarni ham taqdim etadi. Bu o'quvchilarda hayotiy muhim moliyaviy qarorlarni qabul qilish ko'nikmalarini nshakllantirishga yordam beradi.

Shuningdek, STAX, Hit the Road: A Financial Adventure, **Payback**, Spent, GoHenry kabi mobil o'yinlar ham juda mashhur o'yinlar hisoblanadi. Bularni orasida ba'zilar real hayotdagi moliyaviy jarayonlarni simulyatsiya qilib ishtirokchilarni ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatini ham rivojlantirishga ko'maklashadi. Bu o'yinlarni o'quvchilar uyida ota-onalari bilan birgalikda ham o'ynashi mumkin.

Yuqoridagilardan tashqari, www.practicalmoneyskills.com web-saytida o'quvchining yoshi va qobiliyatiga qarab iOS va Android tizimida mavjud bo'lgan ko'plab mobil ilovalarni taqdim etilgan.

Albatta, mobil o'yinlar ko'proq darslardan bo'sh vaqtlari foydalanish uchun mo'ljallangan. Mobil ilovalardan tashqari, o'qituvchilar dars jarayonida foydalanish uchun mo'ljallangan ko'plab o'yinlar, o'yinlarni qanday o'ynash bo'yicha yo'riqnoma, video qo'llanma va tayyor tarqatma matriallarni o'zida mujassamlashtirgan ko'plab web-saytlar ham mavjud. Bu web-saytlarning asosiy mualliflari yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, ta'limga masul federal muassasalar va turli moliya institutlari hisoblanadi. Shunday web-saytlardan biri www.econedlink.org sayti hisoblanadi. Bu web-sayt o'qituvchilar uchun yuqori sifatli dars rejaları, videolar, vebinarlar va dars jaroyoni uchun zarur bo'lgan boshqa matriallarni taqdim etuvchi platforma hisoblanadi. Bu web-saytning eng asosiy qulayligi va boshqa shu vazifani bajaradigan saytlardan farqi barcha resurslar nafaqat o'qituvchilar uchun balki o'quvchilar va ularning ota-onalari foydalanishi uchun ham mo'ljallangan. Web-saytdagi mavzular barcha ijtimoiy-iqtisodiy masalalarni qamrab oladi va o'quv va o'yin matriallari nafaqat maktabdagi barcha sinflar uchun balki kollejda tahsil olayotganlar uchun ham mo'ljallangan.

The screenshot shows the EconEdLink website interface. At the top, there is a search bar and navigation links for 'About', 'CEE Book Store', 'Log in', and 'SIGN UP'. Below the navigation, there are dropdown menus for 'CLASSROOM RESOURCES', 'PROFESSIONAL DEVELOPMENT', 'STUDENT PROGRAMS', and 'FAMILY RESOURCES'. The main content area is titled 'Resources for All Grades' and shows a grid of resource cards. Each card includes a title, grade level, and duration. The cards shown are: 'Willy Wonka's Whimsical Entrepreneurship' (GRADES 3-5, 6-8, 45 mins), 'Willy Wonka Allocates Golden Tickets' (GRADES 3-5, 6-8, 45 mins), 'Should the U.S. Ban Gas-Powered Cars?' (GRADES 9-12, 90 mins), and 'Buying on Credit' (GRADES 9-12, 60 mins). There is also a 'Filter By' section on the left with options for 'CONCEPTS' and 'RESOURCE TYPE'.

3-rasm. Maktab o'quvchilari uchun mo'ljallangan moliyaviy ta'lim sayti

Ushbu web-saytdan Kanada maktab ta'limini 3 ta bosqichi: 1-5, 6-8, 9-12 va kollejda ta'lim olayotgan o'quvchilar uchun alohida tanlash mumkin. Shuningdek, resurslarni tanlanayotgan resursni turiga qarab fan, mavzu va boshqa ko'rsatgichlari bo'yicha ham tanlash imkoniyati mavjud. (2-rasmga qarang).

www.bankofcanadamuseum.ca sayti ham maktab o'quvchilarining ta'lim olishi uchun mo'ljallangan platforma bo'lib, unda nafaqat moliyaviy balki boshqa fanlardan ham bilim darajasini yuksaltirishi mumkin.



Site Search FR

ABOUT US VISIT EXPLORE LEARN


- Grade 02
- Grade 03
- Grade 04
- Grade 05
- Grade 06
- Grade 07 / Secondary 1
- Grade 08 / Secondary 2
- Grade 09 / Secondary 3
- Grade 10 / Secondary 4
- Grades 11 and 12 / Secondary 5 and CEGEP



Content type(s): Activities and games | Subject(s): Financial literacy, Health, Math | Grade level(s): Early childhood / Kindergarten, Grade 01, Grade 02, Grade 03, Grade 04, Grade 05

Canada and the global economy

February 18, 2022



Explore Canada's connections to the global economy. Adjust timelines and filters in our online game to view historical data of gross domestic product, trade, foreign investment and immigration.

Content type(s): Activities and games | Subject(s): Business and careers, Economy, Financial literacy, Geography, History, Social studies | Grade level(s): Grade 06, Grade 07 / Secondary 1, Grade 08 / Secondary 2, Grade 09 / Secondary 3, Grade 10 / Secondary 4, Grades 11 and 12 / Secondary 5 and


CEGEP

Subjects

- Arts
- Business and careers
- Economy
- Financial literacy
- Geography
- Health
- History
- Language arts
- Math
- Social studies

Your role in the Canadian economy

February 18, 2022



Play our game to discover how your economic profile compares with those of other Canadians. Explore population and employment data and spending habits across different regions.

Content type(s): Activities and games | Subject(s): Business and careers, Economy, Financial literacy, Geography, Health, Social studies | Grade level(s): Grade 06, Grade 07 / Secondary 1, Grade 08 / Secondary 2, Grade 09 / Secondary 3, Grade 10 / Secondary 4, Grades 11 and 12 / Secondary 5 and

CEGEP

Needs or wants? That is the question!

October 21, 2021



Do you need it, or do you want it? That's an important question to ask before buying anything. This activity is designed to teach kids how to prioritize their needs and wants, and how to make informed choices when shopping.

Content type(s): Activities and games | Subject(s): Economy, Financial literacy, Health, Math | Grade level(s): Early childhood / Kindergarten, Grade 01, Grade 02

4-rasm. Maktab o'quvchilarining qo'shimcha ta'lim olishi uchun mo'ljallangan sayt

Bunda o'quvchi nechanchi sinfda o'qiyotganligiga qarab qaysi fan zarur bo'lsa, darslardan bo'sh vaqti yok ota-onasini ko'magi bilan berilgan saytda berilgan vazifalarni mustaqil o'zlashtirishi mumkin.

Loyihamizni oldingi bobida ham aytganimizdek, Kanadadagi barcha federal hududlarda ham moliyaviy ta'lim darslariga alohida dars soatlari ajratilmaydi. Bunday shtatlarda moliyaviy savodxonlik ta'limi shtat ta'limiga ma'sul tashkilotlar va mahalliy moliya institutlar bilan birgalikda turli xil kurslar, vebinarlar, treninglar, davra suhbatlari, video muloqotlar ko'rinishida o'qitiladi. Ang asosiysi bunday tadbirlar muntazam o'tkazib boriladi. Shuningdek, o'quvchilar turli online kurslarni taklif etadigan ko'plab saytlar vositasida moliyaviy bilimlarini mustahkamlari mumkin.

Kanadada moliyaviy savodxonlik masalasiga judda jiddiy qaraladi. Buni ispoti sifatida Kanadadagi ta'limga masul bo'lgan barcha muassasalar va barcha moliyaviy institutlar web-saytlarida barcha yoshdagilar uchun moliyaviy ta'lim kontentlarini mavjudligini keltirishimiz mumkin. Shuningdek, aholini moliyaviy savodxonlik darasi bilan shug'ullanuvchi alohida davlat tashkilotini (Kanadaning moliyaviy iste'molchilar agentligi) boshqa davlatlar tajribasida deyarli kuzatilmaydi.

Xulosa va takliflar.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston maktablarida moliyaviy savodxonlik ta'limini berishda ilg'or xorijiy mamlakatlar tajribasini o'rganish va O'zbekiston uchun mos deb hisoblanganlarini maktab ta'limiga joriy erish juda muhim. Ilg'or xorijiy mamlakatlar tajribasini o'rganish moliyaviy ta'limni berishning samarali usullarini aniqlashga qaratilgan pedagogik tadqiqotlar uchun sarflanadigan moliyaviy resurslarni va vaqtni tejashga imkon beradi. Allaqachon jahon amaliyotida mavjud bo'lgan amaldagi ta'lim usullar va texnikalarini O'zbekiston ta'lim tizimiga joriy etish kelajak avlodni moliyaviy savodxonlik darajasini oshishiga, pirovardida moliyaviy barqaror va farovon avlodni yetishtirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot davomida quydagi takliflar ishlab chiqildi.

- Maktablarda moliyaviy savodxonlikni oshirish uchun maxsus kurslar va treninglar tashkil etish zarur. Bu kurslar turli yoshdagi o'quvchilar uchun moslashtirilgan bo'lishi kerak.

- O'quvchilarga moliyaviy bilimlarni o'rgatishda zamonaviy texnologiyalar va interaktiv usullardan foydalanish tavsiya etiladi. Bu raqamli moliya ko'nikmalarini o'rgatishni o'z ichiga oladi.

- Moliyaviy savodxonlikni oshirish bo'yicha davlat va xususiy sektorlar hamkorligini kuchaytirish lozim. Moliyaviy institutlar va ta'lim muassasalari hamkorlikda turli tadbirlar va musobaqalar tashkil etishi mumkin.

- Maktab o'quv dasturlariga moliyaviy savodxonlikni integratsiya qilish. Bu matematika yoki ijtimoiy fanlar doirasida o'qitilishi mumkin. Shuningdek, turli tadbirlar va "moliyaviy savodxonlik kunlari" tashkil etilishi tavsiya etiladi.

- Moliyaviy ta'lim resurslarini yaratish zarur. Bu kitoblar, darsliklar, onlayn kurslar va turli o'yinlar orqali amalga oshirilishi mumkin.

Mazkur tavsiyalar O'zbekiston maktab ta'lim tizimida moliyaviy savodxonlikni oshirishga qaratilgan amaliy dasturlarni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ilg'or xorijiy tajribalar asosida ishlab chiqilgan dasturlar va yondashuvlar yosh avlodning moliyaviy bilim va ko'nikmalarini oshirishda samarali bo'ladi. Bu tavsiyalar asosida ta'lim tizimini isloh qilish, o'quv dasturlarini takomillashtirish va moliyaviy savodxonlikni oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish O'zbekistonning iqtisodiy rivojlanishiga ijobiy hissa qo'shadi.

Adabiyotlar/Jumepamypa/Reference:

Annamaria Lusardi, Leora Klapper, (2014) "Financial Literacy Around the World: Insights from the S&P Global FinLit Survey", S&P Rating Services Global FinLit Survey.

APEC (2019). *Financial Education in Japan: Current State and Challenges*. APEC Policy Support Unit.

Atkinson, A., & Messy, F. A. (2012). *Measuring Financial Literacy: Results of the OECD / International Network on Financial Education (INFE) Pilot Study*. OECD Working Papers on Finance, Insurance and Private Pensions.

Lusardi, A., & Mitchell, O. S. (2014). *The Economic Importance of Financial Literacy: Theory and Evidence*. *Journal of Economic Literature*.

Lusardi, A., Michaud, P. C., & Mitchell, O. S. (2017). *Optimal Financial Knowledge and Wealth Inequality*. *Journal of Political Economy*.

Mandell, L. (2008). *Financial Literacy of High School Students*. In *Handbook of Consumer Finance Research*. Springer.

OECD (2013). *Financial Education in Schools*. OECD Publishing.

OECD (2017). *Financial Education in Schools*. OECD Publishing.

OECD (2017). *PISA 2015 Results (Volume IV): Students' Financial Literacy*. OECD Publishing.

OECD (2018) *Financial Education in Schools*. OECD Publishing.

OECD, "OECD/INFE 2023 international survey of adult financial literacy", 2023

World Bank (2014). *Enhancing Financial Capability and Inclusion in Uzbekistan*. World Bank Report.